

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING MUSIQA MADANIYATI FANIDA QAHRAMONLIK DOSTONLARI ASOSIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Nadirova Ayg'ul Bazarbaevna

docent. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.

Aziz Xojanazarov Kuralbaevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20722910>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "Musiq madaniyati" fani darslarida o'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalari bo'lgan qahramonlik dostonlaridan foydalanishning pedagogik-psixologik va metodologik ahamiyati keng manoda yoritilgan. Maqolada "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarning sinkretik tabiati, ularning yosh avlod tarbiyasidagi, xususan, o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur, mardlik va yuksak estetik didni shakllantirishdagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Shuningdek, dars jarayonida dostonchilik an'analari va baxshichilik yo'llarini o'qitishning zamonaviy interfaol metodlari, didaktik tamoyillari hamda fanlararo bog'liqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Musiq madaniyati, qahramonlik dostonlari, baxshichilik san'ati, pedagogik ahamiyat, vatanparvarlik, estetik tarbiya, Alpomish, dutor, fanlararo integratsiya, milliy qadriyatlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ ПРЕДМЕТУ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ГЕРОИЧЕСКИХ ДАСТАНОВ.

Аннотация. В данной статье подробно освещается педагогико-психологическое и методологическое значение использования героических дастанов, являющихся редкими образцами узбекского фольклора, на уроках «Музыкальной культуры» в общеобразовательных школах. С научной точки зрения анализируется синкретическая природа таких дастанов, как «Алпомиш», «Гороглы», их роль в воспитании молодого поколения, в частности, в формировании у учащихся патриотизма, национальной гордости, мужества и высокого эстетического вкуса. Также выдвинуты методические рекомендации по современным интерактивным методам, дидактическим принципам обучения традициям дастанчества и искусству бахши, а также обеспечению межпредметных связей в учебном процессе.

Ключевые слова: Музыкальная культура, героические дастаны, искусство бахши, педагогическое значение, патриотизм, эстетическое воспитание, Алпомиш, дутар, межпредметная интеграция, национальные ценности.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF TEACHING THE SUBJECT OF MUSICAL CULTURE TO GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS BASED ON HEROIC DASTANS.

Abstract. This article comprehensively highlights the pedagogical, psychological, and methodological significance of utilizing heroic epics (dastans), which are rare examples of Uzbek folklore, in "Music Culture" classes in secondary schools. From a scientific perspective, the syncretic nature of dastans such as "Alpomish" and "Gorogli" and their role in educating the younger generation, particularly in shaping students' patriotism, national pride, courage, and

high aesthetic taste, are analyzed. Furthermore, methodological recommendations are proposed regarding modern interactive methods, didactic principles of teaching dastan traditions and bakhshi art, as well as ensuring interdisciplinary integration in the educational process.

Keywords: Music culture, heroic epics, bakhshi art, pedagogical significance, patriotism, aesthetic education, Alpomish, dutar, interdisciplinary integration, national values.

Insoniyat tarixining har bir davrida yosh avlod tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan asrda yoshlarni milliy qadriyatlar, xalqning boy madaniy merosi hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlarning mazmunini milliy g'oya va milliy qadriyatlar bilan boyitish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu jarayonda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "Musika madaniyati" fani o'quvchilarning nafaqat badiiy-estetik didini o'stirish, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitish, qalbida vatanparvarlik, mardlik va sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda ulkan pedagogik salohiyatga ega. Musika darslarida xalq og'zaki ijodining eng nodir namunalari bo'lgan qahramonlik dostonlaridan foydalanish, yosh avlodni o'zlikni anglash, ajdodlar jasoratiga sadoqat ruhida tarbiyalashda g'oyat qo'l keladi.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "To'maris", "Shiroq" kabi qahramonlik dostonlari asrlar davomida xalqimizning mardlik, or-nomus, yurt mustaqilligi va birdamligi yo'lidagi kurashini kuylab kelgan ma'naviy xazinadir. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining musika madaniyati darslarida qahramonlik dostonlari va dostonchilik san'atidan (baxshichilik yo'llaridan) foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari, uning o'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati hamda bu jarayonni tashkil etishning metodologik jihatlari keng ma'noda tahlil qilinadi.

Qahramonlik dostonlarining badiiy-musiqiy tabiati va baxshichilik san'ati kata ahamiyatga ega. Musika madaniyati fanida dostonlardan foydalanishning pedagogik ahamiyatini anglash uchun, avvalo, qahramonlik dostonlarining sinkretik (birlashgan) tabiatini va baxshichilik san'atining musiqiy xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tushunish lozim.

Doston-shunchaki adabiy matn emas, u so'z san'ati, musika, aktyorlik mahorati va improvizatsiyani (to'satdan ijro etish) o'zida mujassam etgan mukammal san'at turidir.

O'zbek, Qaroqalpoq xalq ijodiyotida dostonchilik bir necha yirik maktablarga bo'linadi:

- **Qashqadaryo va Surxondaryo dostonchilik maktabi** (bo'g'iz ovozida, do'mbira jo'rligida ijro etish);
- **Xorazm dostonchilik maktabi** (ochiq ovozda, tor, dutor, garmon va doira jo'rligida ijro etish);
- **Bulung'ur, Qo'rg'on, Nurota dostonchilik maktablari.**
- **Qaroqalpoq dostonchilik maktablari.**

Qahramonlik dostonlarida musiqiy ohang va ritm (sur'at) tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatishning asosiy quroli hisoblanadi. Baxshining do'mbira yoki dutorda chaladigan kuylari ("baxshi kuylari", "doston yo'llari") o'zining jozibadorligi, jangovarligi yoki lirik g'amginligi bilan o'quvchi psixologiyasiga chuqur ta'sir qiladi.

Masalan, doston tarkibidagi qahramonning jangga o'tlanishi, el-yurti himoya qilish sahnalari jo'shqin va shiddatli ritmlar bilan ijro etilsa, ayriqliq yoki g'am-alam sahnalari mungli, nolali ohanglar orqali ifodalanadi.

Musika madaniyati darslarida dostonlarning aynan mana shu musiqiy tabiati o'quvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi. Ularga milliy cholg'ular (do'mbira, dutor, qobuz) va xalqona ovoz yo'llarining o'ziga xosligini o'rgatish orqali musiqiy idrok va eshitish qobiliyati rivojlantiriladi. O'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirishda dostonlarning pedagogik roli katta. Shuning uchun da maktab dasturlariga dostonchilik san'ati haqida mavzular kiritilgan.

Pedagogika fanining asosiy tamoyillaridan biri — ta'limning tarbiyaviy xarakteridir.

Musika madaniyati fani faqatgina nota o'rgatish yoki qo'shiq kuylatishdan iborat emas, uning tub zahirida inson tarbiyasi yotadi. Qahramonlik dostonlari asosida dars o'tish o'quvchilarda quyidagi muhim fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi:

Vatanparvarlik va el-yurtga sadoqat, dostonlarning asosiy mavzusidir, "Alpomish" dostonida Hakimbekning o'z yuriti Qo'ng'irotni yovuz dushmanlardan ozod qilishi, xalqining mard farzandlarini bir maqsad atrofida birlashtirishi o'quvchilarga haqiqiy vatanparvarlik namunasini ko'rsatadi. Darsda dostonning "Alpomishning jangga o'tlanishi" yoki "Yurt bilan xayrlashuv" kabi musiqiy qismlari tinglanganda, o'quvchi qalbida o'z vataniga bo'lgan muhabbat hissi bevosita musiqiy ohang orqali uyg'onadi.

O'quvchilar dostonlarni tinglash va o'rganish orqali o'z xalqining o'tmishi, madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan tanishadilar. Bu ularda "Biz kimlarning avlodimiz?" degan haqli savolga javob topishga va buyuk ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otishga yordam beradi.

Doston qahramonlari (Alpomish, Barchinoy, Go'ro'g'li, Avazxon) o'smir yoshdagi o'quvchilar uchun ideal qiyofaga aylanadi. Barchinoyning vafo va sadoqati, Alpomishning mardligi va kechirimlili o'g'il va qiz bolalarning xarakter shakllanishiga to'g'ri tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Musiqaning emotsional kuchidan foydalanish orqali ushbu axloqiy mezonlar o'quvchi ongiga quruq nasihat shaklida emas, balki go'zal san'at namunasi sifatida singdiriladi.

Musika madaniyati darslarida qahramonlik dostonlarini o'qitishning metodologik asoslari katta ahamiyatga ega. Qahramonlik dostonlarini dars jarayoniga olib kirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy interaktiv usullardan foydalanishni talab qiladi. Doston materiallarini faqat ma'ruza shaklida taqdim etish kutilgan natijani bermaydi. Buning uchun quyidagi pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Musika tinglash va tahlil qilish metodi orqali, biz bolalarga nafaqat musiqiy ohangni his qilishni, balki uning zahirida yotgan teran ma'no va tarixiy qahramonlik ruhini anglashni o'rgatamiz.

Aynan shu metod orqali dars jarayonida quyidagi muhim pedagogik natijalarga erishiladi:

- **Musiqiy obrazli tafakkur shakllanadi:** Bola baxshi ijrosidagi shiddatli do'mbira zarblarini tinglaganda, ko'z oldida oddiygina cholg'u ovozi emas, balki "Alpomish" dostoni qahramonlarining jangga o'tlanishi, tulpoylarning daryolardan sakrab o'tishi yoki yurt himoyachilarining jasorati kabi jonli sahnalar gavdalanadi. O'quvchi musiqani vizual (ko'z oldiga keltirish) tarzda tasavvur qilishni o'rganadi.

- **Emotsional idrok (hissiy intellekt) rivojlanadi:** Baxshichilik san'atidagi ovoz yo'llari (bo'g'iz ovozi, nolalar) va kuylarning xarakteri o'quvchida turli emotsional holatlarni uyg'otadi.

Ular doston qismidagi g'alaba motivlaridan faxrlanish, ayanchli sahnalardan esa qayg'urish va qahramonlarga hamdard bo'lish (empatiya) tuyg'usini tuyadilar.

• **Tanqidiy va tahliliy fikrlash o'sadi:** Tinglashdan keyingi tahlil jarayonida bolalar o'qituvchi yetakchiligida: "Bu doston yo'li nega bunday tez va jo'shqin chalindi?", "Baxshi bu o'rinda qaysi cholg'udan foydalandi va u qahramonning qaysi holatini ochib berdi?" degan savollarga javob izlaydilar. Bu esa ularni musiqani shunchaki yuzaki tinglovchi emas, balki uning ichki qonuniyatlarini tahlil qiluvchi chuqur musiqiy idrok egasiga aylantiradi.

• **Nutq madaniyati va so'z boyligi boyiydi:** Dostonlar xalqimizning eng go'zal va qadimiy so'z durdonalari bilan sug'orilgan. Musiqa bilan hamohang aytilgan termalar va o'lanlar matnini tahlil qilish jarayonida bolalar yangi o'zbekona so'zlar, iboralar va maqollar bilan tanishadilar, bu esa ularning nutqini va fikrlash doirasini kengaytiradi.

Musiqa tinglash va tahlil qilish metodi darsda shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki bolaning qulog'i orqali uning qalbi va ongiga milliy o'zlikni, mardlik va vatanparvarlik g'oyalarini muhrlashning eng ta'sirchan yo'lidir.

Darsning ma'lum bir qismida taniqli baxshilar (masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Shoberdi baxshi, Qora baxshi kabi ijodkorlar) ijrosidagi doston parchalaridan audio yoki video yozuvlar tinglatiladi. Tinglashdan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda kuylangan qismning mazmuni, musiqiy ohangi va unda ishlatilgan cholg'ular tahlil qilinadi. Bu o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini o'stiradi.

Qaraqalpoq xalq dostonchiligi va baxshichilik san'ati o'zining betakror ijro uslubi, o'ziga xos kuylari va maktablari bilan juda boy tarixga ega. Qaraqalpoq baxshilari dostonlarni ochiq ovozda, qaraqalpoq dutori hamda g'ijjak (yoki qobuz) jo'rligida mahorat bilan ijro etib kelishgan.

Tarixda o'chmas iz qoldirgan va dostonchilik an'alarini bugungi kungacha yetkazib bergan eng mashhur **qaraqalpoq baxshi va jirovlarini** quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tarixiy va klassik baxshi-jirovlar (Maktab yaratuvchilari)

• **Jiyen Jirov (XVIII asr):** Qaraqalpoq xalq dostonchiligining asoschilaridan biri. "Alpomish", "Sharyor" kabi dostonlarni kuylagan hamda mashhur "Posqan el" ("To'zigan yurt") dostonining muallifidir.

• **Ernazar Alako'z (XIX asr):** Xalq ozodligi va mardlikni kuylagan, o'z davrining eng nufuzli baxshilaridan biri.

• **Shernazar Jirov:** Qaraqalpoq jirovchilik maktabida o'ziga xos yo'nalish yaratgan yirik ustoz.

• **Kunxo'ja va Ajiniyaz:** Ular nafaqat buyuk shoirlar, balki o'z she'rlarini dutor jo'rligida kuyga solib, xalq orasida baxshi kabi ijro etgan el sevilgan siymolardir.

2. XX asr qaraqalpoq baxshichilik san'atining yirik vakillari

• **Ejan baxshi (Ejan Qospulatov):** Qaraqalpoq baxshichilik san'atining eng yirik namoyandalardan biri. O'ziga xos maktab yaratgan va ko'plab shogirdlar tarbiyalagan, klassik doston yo'llarini yuksak mahorat bilan ijro etgan.

• **Amet baxshi (Amet Tarixanov):** Qaraqalpoq xalq baxshisi. Dutor chalish va ochiq, baland ovozda doston aytishda o'z davrining tengsiz talant egasi bo'lgan.

• **Genjebay Jirov (Genjebay Tilewmuratov):** Qaraqalpoq jirovchilik san'atini, ayniqsa qobuz bilan tolgo'v (termalar) va doston aytish an'anasini dunyoga tanitgan mashhur jirov.

• **O'teniyaz Jirov, Qalli Jirov:** Qobuzning sirli ovozi ostida "Alpomish", "Qoblon", "Ershora" kabi qahramonlik dostonlarini kuylab, xalqqa yetkazgan ustozlar.

3. Zamonaviy an'analarni davom ettiruvchilar

• **Tuvq'anbay Qurbanov:** Qaraqalpoqiston xalq baxshisi, dutor va baxshichilik kuylarini zamonaviy davrda yuksak pardalarda davom ettirib kelgan yetuk ijrochi.

• **Baxbergen Sirimbetov:** Jirovchilik va baxshichilik dainti va amaliy jihatdan yoshlarga o'rgatishda, milliy merosni asrashda katta hissa qo'shib kelayotgan san'at arbobi.

Qaraqalpoq xalq musiqasida "**Jirov**" va "**Baxshi**" tushunchalari o'rtasida farq bor.

Jirovlar asosan qobuz cholg'usida, bo'g'iz ovozi (guttural ovoz) bilan tarixiy-qahramonlik dostonlarini ("Qoblon", "Alpomish") aytishadi. **Baxshilar** esa dutor va g'ijjak jo'rligida, lirik-romantik dostonlarni ("G'arib-Oshiq", "Sayatxon-Hamro") ochiq va baland ovozda kuylashadi.

Interfaol o'yinlar va "Rolli o'yin" metodi

Dostondagi muayyan bir voqeani (masalan, Alpomishning Qo'ng'irotgga qaytishi yoki xalq sayli) kichik musiqiy sahna ko'rinishi shaklida tashkil etish mumkin. O'quvchilarga qahramonlar rollari taqsimlanadi va ular doston ohanglari ostida harakat qiladilar yoki qo'shiq aytadilar. Bu metod o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini keskin oshiradi va darsda ijodiy muhit yaratadi.

Musiqqa darsida qahramonlik dostonlarini o'qitishda adabiyot, tarix va tasviriy san'at fanlari bilan integratsiya hosil qilish lozim. Tarix darsi orqali doston yaratilgan davr, adabiyot orqali uning badiiy matni, musiqqa orqali esa uning ohanglar olami yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarga "Doston qahramoni musiqada" mavzusida rasm chizdirish ham vizual va musiqiy idrokni birlashtiradi.

Umumta'lim maktablarida dostonlar asosida ta'lim berish jarayoni didaktikaning (o'qitish nazariyasining) asosiy qonuniyatlariga tayanadi. Musiqqa o'qituvchisi ushbu tamoyillarni inobatga olishi shart:

• **Tushunarlilik va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili:** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga (1-4 sinflar) dostonlarning sodda va qisqa ertaknamo elementlari, afsonaviy jihatlari musiqiy o'yinlar orqali o'rgatiladi. Yuqori sinflarda esa (5-7 sinflar) dostonning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va murakkab musiqiy tuzilishi (baxshichilik maktablari farqlari) tahlilga tortiladi.

• **Ko'rgazmalilik tamoyili:** Darslarda do'mbira, dutor kabi cholg'ularning real ko'rinishi, baxshilarning milliy liboslari, doston qahramonlarining suratlari aks etgan slaydlardan foydalanish dars samaradorligini kafolatlaydi.

• **Muntazamlik va uzviylik tamoyili:** Qahramonlik dostonlari faqat bitta darsda o'rganilib qolmasdan, balki chorak davomida, xalq musiqqa ijodiyoti mavzulari bilan uzviy bog'langan holda tizimli ravishda dasturga kiritilishi lozim.

Estetik tarbiya — bu insonni atrof-muhitdagi, hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok etishga, qadrlashga o'rgatish tizimidir. Bugungi kunda yoshlar o'rtasidan "ommaviy madaniyat" ta'sirida yuzaki, saviyasiz musiqiy asarlarga moyillik kuchayib borayotgan bir paytda, qahramonlik dostonlarining klassik namunalarini haqiqiy estetik qalqon vazifasini o'taydi.

Dostondagi xalqona ohanglar, termalar va qo'shiqlar o'zining tuganmas ichki energiyasi bilan tinglovchini hayratga soladi. Baxshining ichki kechinmalari, ovoz tebranishlari (nolalar) va do'mbiraning o'ziga xos zarblari o'quvchida badiiy didni shakllantiradi. Ular haqiqiy milliy san'at bilan soxta san'at o'rtasidagi farqni anglay boshlaydilar. Dostonlardagi vatanparvarlik ruhi o'quvchilarning musiqiy-estetik tuyg'ularini yuksak ijtimoiy ideallar bilan bog'laydi.

Umumta'lim maktablarining musiqqa madaniyati fanida qahramonlik dostonlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ulkan pedagogik va strategik ahamiyatga ega.

Dostonlar shunchaki o'tmish xotirasi emas, balki bugungi va kelajak avlodni komil inson qibly tarbiyalashning qudratli ma'naviy vositasidir.

Qahramonlik dostonlarini musiqa darslarida chuqur o'rganish orqali biz:

1. Yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlaymiz.
2. Unutilish xavfi ostida bo'lgan baxshichilik va dostonchilik san'atiga bo'lgan milliy qiziqishni qayta tiklaymiz.
3. O'quvchilarning estetik didini yuksaltirib, ularni yuzaki axborotlar va ma'naviy tahdidlardan himoya qiladigan ichki immunitetni shakllantiramiz.

Pedagogik amaliyotda ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish uchun musiqa darsliklarida dostonchilik xrestomatiyalarini ko'paytirish, zamonaviy multimedia ilovalarini yaratish va o'quvchilarni teatr hamda baxshichilik kechalariga faol jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Ajdodlarimizning qahramonlik qo'shiqlari yoshlar qalbidan munosib o'rin olgandagina, biz milliy o'zligini anglagan, mard va vatanparvar avlodni tarbiyalashga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh.M.** "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va baxshichilik san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent, 2019-yil.
2. **Jirmunskiy V.M., Zarifov H.T.** "O'zbek xalq qahramonlik eposi". Toshkent: Fan, 1947.
3. **Alaviya M.** "O'zbek xalq dostonchiligining badiiy xususiyatlari". Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
4. **Panjiyev Q.** "Musiqa o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma.-Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. **Yo'ldosheva S.** "Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining samaradorligini oshirish yo'llari". Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. **"Alpomish"** (O'zbek xalq qahramonlik dostoni). Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosi. — Toshkent: Sharq, 1998.
7. **Nadirova.A.B.** Maktablarda musiqa madaniyati darsida "Teatr san'ati" mavzusini o'qitishda interaktiv uslublardan foydalanish. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 5 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.20478111>
9. **A.Omarova.** Qaraqalpaq milliy qosiqlarini izertleniwi hám rawajlanıw baǵdarı. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Илимий-методикалык журнал №3 2024. Mart e-mail: uzniipnkkf@umail.uz mugallim-pednauk@umail.uz www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz
10. **A.Omarova.** Qaraqalpaq milliy muzıkalarınıń tárbıyalıq áhmiyeti. Kórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı. №4.(8)2025. ISSN 2992-9245 <https://uzdsmi-nf.uz/jurnal-haqida/>
11. **A.Omarova.** Baxshichilik maktablari. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025-yil,3-tom, 10-son pedagogicalperspective2023@gmail.com./Inter education & global study . 2025. Vol.3 №10. C
12. **A.Omarova. F.Bekbaulieva.**«Ershora» dástanındaǵı qaharmanlıq obrazlar. Kórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı <https://journal.uzdsmi-nf.uz/index.php/acb/ru/article/view/154>